(99)-813-77-76

ENG MUHIM MAQSADLARINGIZNI BILING!!!

MATEMATIKADAN

Baza

(2019-YIL)

TOSHKENT 2019

1. $\sqrt{4^{15}+6^{16}+9^{16}}-\sqrt{4^{15}-6^{16}+9^{16}}$ ifodani soddalashtiring.
A) $2\cdot9^8$ B) $2\cdot3^{15}$ C) 3^{15} D) 2^{16}

2. Turistik firma uch kunlik avtobusda sayohat tashkil qildi. Bir kishi uchun ekskursiya narxi 3500 so'm. Guruhlarga chegirmalar joriy etildi, yani 3 dan 10 kishigacha – 5%, 10 kishidan ortiq bo'lsa – 10%. 6 kishidan iborat guruh necha so'm harajat qilgan.
A) 20900 B) 19950 C) 19900 D) 20950

3. 3 ga bo'lganda 1 qoldiq qoladigan dastlabki o'n yettita toq natural sonlar yig'indisini toping.
A) 935 B) 833 C) 736 D) 820

4. $(x^3-4x)\cdot\sqrt{x+1}>0$ tengsizlikning eng katta butun manfiy yechimini toping.
A) -3 B) ∅ C) -2 D) -1

5. Ifodani soddalashtiring:
$2\cdot\cos\left(\frac{\pi}{6}-\frac{\alpha}{4}\right)\cdot\sin\left(\frac{\pi}{3}-\frac{\alpha}{4}\right)\cdot sin\frac{\alpha}{4}$
A) $\frac{1}{2}sin\frac{\alpha}{2}$ B) $\frac{1}{2}sin\frac{3\alpha}{2}$ C) $\frac{1}{2}sin\frac{3\alpha}{4}$ D) $\frac{1}{4}sin\frac{3\alpha}{4}$

6. Agar $\log_{30}3=a$ va $\log_{30}5=b$ bo'lsa, $\log_{30}4$ ni a va b orqali ifodalang.
A)2a+2ab-2b B)2-2a-2b C)1-a-b D)2+2a-2b

7. a·b·c=5 bo'lsa,
$\left(\frac{2}{a}-b\cdot c\right)\cdot\left(\frac{4}{b}-a\cdot c\right)\cdot\left(\frac{3}{c}-a\cdot b\right)$ ko'paytmani qiymatini toping.
A) 1 B) $\frac{2}{3}$ C) $-\frac{6}{5}$ D) $-\frac{5}{3}$

8. $a^2-b^2+a+7b-12$ ko'phadning ko'paytuvchilardan birini toping.
A) a+b+4 B) a+b-3 C) a-b+3 D) a+b+3

9. Tenglamani yeching. $\cos^2x-\sin^2x=-\frac{1}{2}$
A) $\pm\frac{5\pi}{3}+\pi k, k\in Z$ B) $\pm\frac{5\pi}{6}+\pi k, k\in Z$
C) $\pm\frac{5\pi}{3}+2\pi k, k\in Z$ D) $\pm\frac{\pi}{3}+\pi k, k\in Z$

10. Tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.
$\log_2(2-x)-\log_2\left(2-\sqrt{x}\right)=\log_2\sqrt{2-x}-0{,}5$
A) $\frac{16}{9}$ B) $\frac{29}{45}$ C) $\frac{80}{45}$ D) $\frac{13}{4}$

11. Tenglamalar sistemasini yeching.
$\begin{cases}(x+xy^2+y^2)(x+y^2)^2=225\\(x-xy^2+y^2)(x+y^2)^2=25\end{cases}$
A) (4;1), (4;-1) B) (1;2), (1;-2)
C) (-4;1), (4;-1), (1;2), (1;-2)
D) (4;1), (4;-1), (1;2), (1;-2)

12. $2^{\log_{0,8}(x)\cdot\log_{0,8}(1,25x)}>1$ tengsizlikni yeching.
A) (1;∞) B) (0;1,25)∪(3;∞)
C) (0;0,8)∪(1;∞) D) (0,8;1)

13. $x+6<\sqrt{x+18}$ tengsizlikni yeching
A) [-18;16) B) [-18;-1) C) (-18;-2) D) [-18;-2)

14. Yon tomoni 41 sm , balandligi 40 sm va o'rta chizig'i 45 sm bo'lgan teng yonli trapetsiyaning asoslarini toping.
A)38sm, 52sm B)42sm, 48sm
C)36sm, 54sm D)24sm, 66sm

15. Grafik ko'rinishda berilgan funksiyaning qiymatlar to'plamini toping.



A) [-4;-1)∪(-1;3] B) [-3;7)
C) [-3;-2]∪[2;5] D) [-4;3]

16. $y=x^5-5x^4-2$ funksiyaning (-1;1) oraliqdagi eng katta qiymatini toping.
A)-50 B)-1 C)∅ D)-2

17. $\int_0^{\frac{\pi}{2}}\sin(2x+\frac{\pi}{3})dx$ integralni hisoblang.
A)0,25 B)1,5 C)1,25 D)0,5

18. Bir burchagi 60^0 bo'lgan to'g'ri burchakli uchburchakka tomoni 6 sm ga teng bo'lgan romb shunday ichki chiziganki, 60^0 li burchak ular uchun umumiy, rombning barcha uchlari uchburchakning tomonlarida yotadi. Uchburchakning katta tomoni uzunligini toping.
A) 18sm B) 12sm C) 16sm D) 24sm

19. Muntazam uchburchakka tomoni 1 ga teng bo'lgan kvadrat ichki chizilgan. Uchburchakning tomonini toping.
A) $\frac{2\sqrt{3}+9}{3}$ B) $\frac{2\sqrt{3}+9}{6}$ C) $\frac{2\sqrt{3}+3}{3}$ D) $\frac{2\sqrt{3}+3}{6}$

20. Piramidaning asosi tomoni 4 ga teng bo'lgan muntazam uchburchakdan iborat. Uning ikkita yon yoqlari asos tekisligiga perpendikulyar bo'lib, ular teng yonli to'g'ri burchakli uchburchakdan iborat. Piramida yon sirtining yuzini toping.
A) $16+4\sqrt{7}$ B) $12+4\sqrt{7}$ C) $12+4\sqrt{7}$ D) $16+\sqrt{7}$

21. Koordinata to'g'ri chizig'ida $\sqrt{39}$ songa mos nuqta belgilangan. Bu qaysi nuqta



A)Q nuqta B)M nuqta C)N nuqta D)P nuqta

22. A={1;3;5;6;8;9;10;11} va B={5;6;7;8;10;11} to'plamlar berilgan. A∩B to'plam elementlari sonini toping.
A) 5 B) 8 C) 9 D) 4

23. Quyidagilardan qaysilari to'g'ri?
1)agar b>0 , a>c>0 bo'lsa, u holda $\frac{a}{b}>\frac{c}{b}$ bo'ladi
2)agar a>0, 0<b<c bo'lsa, u holda $\frac{a}{b}>\frac{a}{c}$ bo'ladi

3)agar c>0, a>b>0 bo'lsa, u holda $\frac{a}{b} < \frac{a+c}{b+c}$ bo'ladi.

A) 2; 3 B) 1; 2 C) 1; 2; 3 D) 1; 3

24. To'g'ri berilgan integrallash formulalarini tanlang:

1) $\int \sin\big(g(x)\big) \cdot g'(x)dx = -\cos\big(g(x)\big) + x + c$

2) $\int \cos(g(x)) \cdot g'(x)dx = \sin\big(g(x)\big) + c$

3) $\int \text{ctg}(g(x)) \cdot g'(x)dx = \ln|\sin\big(g(x)\big)| + c$

A) 1; 2 B) 2; 3 C) 1; 2; 3 D) 1; 3

25. Quyida keltirilgan tasdiqlardan qaysilari to'g'ri.

1)teng yonli trapetsiyaga har doim ichki aylana chizish mumkin.

2)ixtiyoriy nuqta orqali bir va undan ortiq to'gri chiziqlar o'tkazish mumkin.

3)agar burchak 45^0 teng bo'lsa, u holda unga vertikal burchak ham 45^0 ga tengdir.

4)ixtiyoriy trapetsiyaning yon tomonlari tengdir.

A) 2; 3 B) 1; 4 C) 2; 4 D) 1; 3

26. $y = x^2 - |2x - 4|$ funksiya grafigiga $x = 3$ va $x = -3$ nuqtalarda o'tkazilgan urinmalarning kesishish nuqtasi abssissasini toping.

A) 3 B) 1 C) -1 D) -1

27. Ketma-ket kelgan ikkita musbat juft sonlar kavdratlarining ayirmasi 124 ga teng. Ushbu sonlardan kichigini toping.

A) 32 B) 26 C) 28 D) 30

28. $y = x^4 - 4lnx$ funksiyani minimum nuqtasini toping.

A) x=2 B) x=1 C) mavjud emas D) x=0

29. Quyida berilgan ketma-ketliklardan qaysi biri arifmetik progressiya hisoblanadi?

A)3 sonining darajalaridan iborat natural sonlar ketma-ketligi.

B)natural sonlarning kublaridan iborat ketma-ketlik.

C)surati maxrajidan 1 ga kichik bo'lgan barcha to'g'ri kasrlar ketma-ketligi.

D)4 ga karrali bo'lgan natural sonlar ketma-ketligi.

30. A(0;1) va B(5;-3) nuqtalar berilgan. Agar B nuqta AC kesmani o'rtasi bo'lsa, C nuqta koordinatalari yig'indisini toping.

A)2 B)2,5 C)3 D)4

31. $(\sin161^0+\sin41^0)(\sin139^0+\sin19^0)+(\sin49^0-\sin109^0)(\sin131^0-\sin71^0)$ ni soddalashtiring.

A) 1 B) 0 C) $\cos22^0$ D) $\sin22^0$

32. Ifodani soddalashtiring.

$2(sin\alpha)^{-1} + 2(tg\alpha)^{-1} - \left(tg\frac{\alpha}{2}\right)^{-1}$

A) $tg\frac{\alpha}{2}$ B) $ctg\frac{\alpha}{2}$ C)$-2ctg\frac{\alpha}{2}$ D)$-tg\frac{\alpha}{2}$

33. Ifodani soddalashtiring.

$\frac{1-log_a^3 b}{(\log_a b+\log_b a+1)\cdot\log_a\frac{a}{b}} \cdot \log_b a$

A) 0 B) 2 C) 1 D) 3

34. Agar a, b, c manfiy butun sonlar bo'lib $\frac{1}{a} > \frac{1}{b} > \frac{1}{c}$ tengsizliklar bajarilsa,

$|a+b| - |b-c| + |a-c|$ ifodani soddalashtiring.

A)$-2a$ B)$-2a-2c$ C) 0 D) $b-a$

35. Ifodaning qiymatini toping.

$7^{1-\log_7 8} - 4^{-\log_4 0{,}125}$

A) -7,875 B) 0 C) -3,875 D) -7,125

36. Kasrni qisqartiring. $\frac{x^4+a^2x^2+a^4}{x^3-a^3}$

A)$\frac{x^3+ax^2+a}{x^2+ax+a^2}$ B)$\frac{x^2-ax+a^2}{x^2+ax+a^2}$ C)$\frac{x^2+ax+a^2}{x-a}$ D)$\frac{x^2-ax+a^2}{x-a}$

37. $2x^2 - \big(2\sqrt{3} + 3\sqrt{2}\big)x + \sqrt{6} + 2 = 0$ tenglamaning kichik ildizini toping.

A)$-\frac{\sqrt{2}}{2}$ B) $\sqrt{3}+\sqrt{2}$ C) $\sqrt{3}-\sqrt{2}$ D) $\frac{\sqrt{2}}{2}$

38. a haqiqiy soni uchun $\sqrt{12-a} - \sqrt{5-a} = 2$ $\sqrt{12-a} + \sqrt{5-a}$ ifodaning qiymatini toping.

A) 2,5 B) 3 C) 3,5 D) 4

39. $f(x) = \begin{cases} 4x+1\ , x<0 \\ -x^3+5\ ,\ x \geq 0 \end{cases}$ funksiya berilgan. $f(f(2))$ ni toping.

A)-13 B)-7 C)-11 D)-1

40. $|x+2| + \frac{1}{2}|x-4| = 6$ tenglamaning barcha haqiqiy yechimlari yig'indisini toping.

A) 5 B) 0 C) -3 D) 1

41. a ning qanday eng kichik butun qiymatida $-x^2 - 10x + 5 < a$ tengsizlik x ning barcha qiymatlarida o'rinli bo'ladi?

A) 32 B) 29 C) 30 D) 31

42. $2^{\sqrt{x+1}} - 6 \leq 2^{4-\sqrt{x+1}}$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun sonlar nechta?

A) 10 ta B) 7 ta C) 9 ta D) 8 ta

43. $y = \frac{|x-1|}{x-1} + 2$ funksiya grafigi qaysi choraklardan o'tadi.

A)I, III, IV B)I, II, III C)I, III D)I, II

44. Uchburchakning 10 ga teng balandligi uning asosini 10 va 4 ga teng kesmalarga ajratadi. Uchburchakning qolgan ikki tomonidan kichigiga o'tkazilgan mediana uzunligini toping.

A)11 B)14 C)13 D)12

45. Agar f(x)= $\frac{e^x}{lnx} - \sqrt{sin3}$ bo'lsa, f '(e) ni toping.

A) $\frac{e^{e-1}\cdot(e-1)}{e}$ B) $e^{e-1}\cdot(e-1)$ C) e D) e^e

46. $\int_1^3 2e^{2x}dx$ integralni hisoblang.

A) $e^2(e^3-1)$ B) $e^2(e^4-1)$ C) $e^4(e^2-1)$

D) $e^2(e^4+1)$

47. Teng yonli trapetsiyaning pastki asosi 50 sm ga ustki asosi esa 36 sm ga teng. Bu trapetsiyaning dioganallari o'zaro perpendikulyar. Uning yuzini toping.

A)1849 sm^2 B)2036 sm^2 C)1600 sm^2 D)1681 sm^2

48. a, b, c musbat butun sonlar uchun $x = 3a + 2 = 5b + 4 = 7c + 6$ tengliklar bajarilsa, x uch xonali sonning eng katta qiymatini toping.

A)999 B)944 C)945 D)976

49. Tomoni 4 ga teng bo'lgan ABCDEF muntazam oltiburchakda L nuqta AB tomon o'rtasi. K nuqta ED tomondan olingan nuqta bo'lib DK=3 bo'lsa, KL ning uzunligini toping.

A) $4\sqrt{3}$ B) 7 C) $3\sqrt{7}$ D) 6

50. Quyidagi chizmada berilganga ko'ra ,



$\frac{|a-b|+|b-c|+|c-a|}{2}$ ni toping.

A) a-b B) b-c C) a-c D) b-a

51. x^2-4x-7=0 tenglamaning ildizlari a va b bo'lsa $\frac{20}{a^2-4a+3}+\frac{2b^2-8b+16}{5}$ ning qiymatini toping.

A) 6 B) 7 C) 8 D) 4

52. $y=1+2x^2-4x+m$ funksiyaning eng kichik qiymati -3 ga teng bo'lsa , m=?

A) -3 B) 0 C) -2 D) -1

53. Ikki xonali son o'zining raqamlari ko'paytmasidan 3 marta , yig'indisidan 4 marta katta? Shu sonning raqamlarining yig'indisini toping.

A) 12 B) 17 C) 8 D) 6

54. $64^{25}\cdot 25^{64}$ soni N sonining kvadrati bo'lsa, N sonining raqamlari yig'indisini toping.

A) 14 B) 28 C) 7 D) 21

55. y=|x| berilgan. y ' ni toping.

A) 1 B) -1 C) 0 D) $\frac{|x|}{x}$, $x\neq 0$

56. Qaysi nuqtada $y=x^3-2x^2+4$ va $y=x^3-\ln x$ funksiyalarning grafiklariga o'tkazilgan urunmalar o'zaro parallel bo'ladi?

A) $x=\frac{1}{2}$ B) $x=\pm\frac{1}{2}$ C) x=2 D) $x=-\frac{1}{2}$

57. Muntazam uchburchakka tomoni m ga teng bo'lgan kvadrat ichki chizilgan. Uchburchakning tomonini toping.

A) $\frac{m(2\sqrt{3}+6)}{3}$ B) $\frac{m(2\sqrt{3}+6)}{6}$ C) $\frac{m(\sqrt{3}+3)}{3}$ D) $\frac{m(2\sqrt{3}+3)}{3}$

58. Radiuslari 7 va 14 sm bo'lgan kesishuvchi ikkita aylananing kesishish nuqtalaridagi urunmalar o'zaro perpendikulyar . O_1ABO_2 shaklning yuzini toping., bunda AB – aylanalarga umumiy urunma, O_1 va O_2 esa ularning markazlari.

A) 110sm^2 B) 238sm^2 C) 109sm^2 D) 147sm^2

59. $ABCDA_1B_1C_1D_1$ kub berilgan bo'lib , K, L, M – nuqtalar mos ravishda BB_1 , A_1D_1 , va CD qirralarning o'rtalari. Kubning KLM tekislik bilan kesimi ….. bo'ladi.

A)oltiburchak B)beshburchak C)to'rtburchak D)uchburchak

60. Do'konda 5 xil konvert va 4 xil marka sotilmoqda. Konvert bilan markani necha usulda sotib olish mumkin?

A) 16 B) 20 C) 18 D) 15

61. Chiziqli tenglamalar sistemasi nechta ildizga ega bo'la oladi.

1) bitta ildizga; 2)cheksiz ko'p ildizga; 3)ildizi yo'q;

A)faqat 1 B)faqat 1;3 C)faqat 2;3 D)1; 2; 3

62. To'g'ri berilgan integrallash formulalarini tanlang.

1) $\int \frac{1}{g(x)}\cdot g'(x)dx=\ln|g(x)|+c$

2) $\int a^{g(x)}\cdot g'(x)dx=\frac{a^{g(x)}}{\ln|a|}+c$

3) $\int e^{g(x)}\cdot g'(x)dx=\mathrm{g(x)}\cdot e^{g(x)}+c$

A) 1; 2; 3 B) 1; 2 C) 2; 3 D) 1; 3

63. Agar a natural sonni 36 ga bo'lganda bo'linma $n, qoldiq\ n^2$ ga teng bo'lsa , a sonining eng kata qiymatini toping.

A)160 B)432 C)205 D)117

64. $agar\ 27{,}3\cdot 10^n=0{,}0000273$ bo'lsa , n ni toping.

A)-6 B)-7 C)-5 D)-4

65. Hisoblang: $arcsinsin3$.

A)$\frac{\pi}{2}-3$ B)$\pi-3$ C)3 D)$\emptyset$

66. Hisoblang:

$cos1^0+cos2^0+cos3^0+\cdots+cos179^0$.

A)1 B)-1 C)0 D)$cos89^0$

67. Quyida keltirilgan tasdiqlardan qaysilari noto'g'ri?

1)Agar ikkita aylana radiuslari 3 va 5, ularning markazlari orasidagi masofa 1 ga teng bo'lsa, u holda bu aylanalar kesishadi.

2)To'g'ri chiziqda yotmagan nuqta orqali o'tkazilgan to'g'ri chiziq , bu to'g'ri chiziqqa paralleldir.

3)Agar rombning burchaklaridan biri 90^0 ga teng bo'lsa, u holda bunday romb kvadratdir.

4)Agar ikkita aylanalar radiuslari 5 va 7, ularning markazlari orasidagi masofa 3 ga teng bo'lsa, u holda aylanalar umumiy nuqtaga ega emas.

A) 1; 3 B) 2; 4 C) 1; 4 D) 2; 3

68. 40-35-13-1 ifodaga qavslar qo'yilganda nechta turli xil natijalar olish mumkin?

A) 7 B) 4 C) 5 D) 8

69. Ifodaning qiymatini toping. $\sqrt[3]{\frac{400\sqrt{23^2-17^2}}{\sqrt{0{,}6}}}$

A) 18 B) 21 C) 19 D) 20

70. $\frac{8}{1+\frac{2}{x-1}}$ kasr ma'noga ega bo'lmaydigan barcha x lar yig'indisini toping?

A) -1 B) 1 C) 0 D) -2

71. $2<a<9$ va $2<b<10$ bo'lsa , a va b butun sonlar uchun $\frac{1+\frac{a}{b}}{1+\frac{b}{a}}$ kasrning eng katta qiymatini toping.

A) $\frac{8}{3}$ B) 15 C) $\frac{7}{3}$ D) 7

72. a va b sonlar o'zaro tub sonlardir. Bu sonlarning eng kichik umumiy karralisi 500 ga teng bo'lsa, a+b ni toping.

A) 129 B) 14 C) 100 D) 125

73. Birinchi quvurdan ikkinchi quvurga qaraganda ikki barobar ko'p suv oqadi. Ikkalasi birgalikda bo'sh hovuzni 12 soatda to'ldiradi. Birinchi quvur hovuzning uchdan bir qismini necha soatda to'ldiradi?

A) 4 B) 12 C) 9 D) 6

74. 1 dan boshlab ketma-ket natural sonlarning eng ko'pi bilan nechtasining yig'indisi 528 dan kichik bo'ladi?

A) 29 B) 32 C) 31 D) 30

75. Agar biror oyda 5 ta dushanba bo'lsa, shu oyda .... bo'la olmaydi.

A) 5 ta chorshanba B) 5 ta seshanba

C) 5 ta payshanba D) 5 ta shanba

76. Uch yashikda 85,6 kg meva bor. 2-yashikdagi meva 1-yashikdagi mevaning 0,8 qismini tashkil qiladi, 3-yashikda esa 2-yashikdagining 42,5% miqdoricha meva bor. Uchunchi yashikda qancha meva bor?

A) 13,6 kg B) 13 kg C) 12,5 kg D) 14 kg

77. Arifmetik progressiyada $a_7+a_{13}=34$ va $a_5+a_7=18$ bo'lsa, S_{24} ni toping?

A) 528 B) 488 C) 520 D) 498

78. Musbat hadli geometrik progressiyada $S_2=3$ $S_3=7$ bo'lsa S_8=ni toping?

A) 311 B) 288 C) 255 D) 256

79. Xitoy aholisining soni $1{,}2\cdot10^9$ kishini , Italiyaniki esa $5{,}8\cdot10^7$ kishini tashkil qiladi. Xitoy aholisining soni Italiya aholisining sonidan necha marta ko'p?

A) taxminan 23 marta B) taxminan 21 marta C) taxminan 22 marta D) taxminan 19 marta

80. 9*950 yozuvda yulduzchani shunday raqam bilan almashtiringki , hosil bo'lgan son 45 ga qoldiqsiz bo'linsin.

A) 2 B) 5 C) 6 D) 4

81. Imtihonda belgilangan har bir to'g'ri javobda 4 ball berilib , har bir noto'g'ri javob uchun 1 ball chegiriladi. Belgilanmagan javoblar uchun ball berilmaydi ham, chegirilmaydi ham. Agar 50 ta savolli testdan o'quvchi 153 ball to'plagan bo'lsa, u nechta savolga javob belgilamagan?

A) 5 ta yoki 8 ta B) 5 ta yoki 3 ta

C) 5 ta yoki 9 ta D) 3 ta yoki 8 ta

82. Arifmetik progressiya quyidagicha shart bo'yicha berilgan a_1=-3,1 ; $a_{n+1}=a_n+0{,}9$. Uning dastlabki 19 ta hadi yig'indisini toping.

A) 95 B) 99 C) 91 D) 92

83. Arifmetik progressiyada $a_{11}=5a_7$ bo'lsa , uning dastlabki o'n bitta hadi yig'indisini toping.

A) 11 B) 22 C) 4 D) 0

84. Arifmetik progressiyaning barcha musbat hadlari yig'indisini toping. 11,2 ; 10,8 ; 10,4 ; ...

A) 162,4 B) 162 C) 162,8 D) 163,2

85. Uchta sonning uchinchisi ikkinchisidan nechta ortiq bo'lsa, ikkinchisi birinchisidan shuncha ortiq. Bu sonlardan ikkita kichigining ko'paytmasi 165 , ikkita kattasining ko'paytmasi 285 ekanligi ma'lum. Shu uchta sondan uchinchisini toping.

A) 13 B) 19 C) 15 D) 17

86. Ayirmasi noldan farqli arifmetik progressiyada to'rtinchi hadidan o'n to'rtinchi hadigacha bo'lgan yig'indisi 55 ga teng. Arifmetik progressiyaning nechanchi hadi 5 ga teng bo'ladi?

A) 11 B) 9 C) 12 D) 10

87. Hovuzdagi suv bo'shatila boshlaganidan bir soat o'tgach, unda 400 m^3 suv qoldi va yana uch soat vaqt o'tgach esa 250 m^3 suv qoldi. Dastlab hovuzda qancha suv bo'lgan.

A) 450 B) 475 C) 600 D) 525

88. Hisoblang:

$\left(\frac{\sqrt{6}+\sqrt{5}}{\sqrt{2}+1}\cdot\frac{\sqrt{6}-\sqrt{5}}{\sqrt{2}-1}\right):\left(\frac{1}{\sqrt{3}}-\frac{\sqrt{3}}{9}+\frac{1}{\sqrt{27}}\right)$.

A)1 B)$3\sqrt{3}$ C)$\sqrt{3}$ D)$\frac{\sqrt{3}}{3}$

89. Ahmad bir kun, Arslon ikki kun ishlaganda bir ishning $\frac{3}{8}$ qismini bajarishadi.Agar Ahmad uch kun , Arslon ikki kun ishlasa, aynan o'sha ishning $\frac{5}{8}$ qismini bajarishadi. Ahmad bir o'zi ushbu ishni necha kunda tamomlaydi?

A) 4 B) 10 C) 8 D9

90. $\log_{x^2} 13 = \log_{4-3x} 13$ tenglamaning ildizi 5 dan qancha kam.

A) 5 B) 4 C) 7 D) 9

91. Tenglamani yeching;

$$4cos^2x - 2sin^2x - 5cosx - 4 = 0$$

A) $x = \pm\arccos\left(-\frac{2}{3}\right) + \pi n; n \in Z;$

B) $x = \pm\arccos\left(-\frac{2}{3}\right) + 2\pi n; n \in Z;$

C) $x = \arccos\left(-\frac{2}{3}\right) + \pi n; n \in Z;$

D) $x = \pm\arccos\frac{2}{3} + \pi n; n \in Z;$

92. $ax^2 - 3ax + a + 7 > 0$ tengsizlik x ning ixtiyoriy qiymatida o'rinli bo'ladigan barcha butun a larning o'rta arifmetigini toping.

A) 3 B) 1,5 C) 2 D) 2,5

93. Berilgan tengsizlikning butun ildizrini toping.

$\log_{\frac{1}{3}}\log_4(x^2-5) \geq 0 \;\; agar \;\; x \leq -3$

A) 2 B) 3 C) 4 D) 1

94. Diagonallari perpendikulyar bo'lgan to'g'riburchakli trapetsiyaning asoslari 2 va 8 ga teng. Trapetsiya yuzini toping.

A) 25 B) 16 C) 24 D) 20

95. Agar ABC uchburchakning AB va AC tomonlarida M va N nuqtalar olinib, ular tomonlarni mos ravishda AM:BM=2:5 va AN:CN=4:5 kabi nisbatda bo'lsa, CM to'g'ri chiziq BN kesmani qanday nisbatda bo'ladi?

A) 9:5 B) 12:7 C) 6:5 D) 9:2

96. Balandligi $\frac{\sqrt{5}}{3}$ bo'lgan 120^0 yoyli segmentga ABCD to'g'ri to'rtburchak shunday ichki chizilganki, bunda AB:BC=1:4 va BC tomon segment vatarida yotadi. To'g'ri to'rtburchak yuzini toping.

A) 1,2 B) 0,8 C) 1 D) 0,6

97. A(-1;1) va B(5:-3) nuqtalar berilgan. Agar B nuqta AC kesmaning o'rtasi bo'lsa, C nuqta koordinatalari ayirmasining modulini toping.

A) 4 B) 16 C) 18 D) 25

98. Qutida "INFORMATIKA" so'zini hosil qiladigan harflar bor. Tavakkal tanlanganda "A" harfining chiqish ehtimolligini toping.

A) $\frac{1}{11}$ B) $\frac{2}{11}$ C) 11 D) $\frac{1}{22}$

99. Quyida keltirilgan tasdiqlardan qaysilari noto'g'ri?

1)Agar tekislikda ikkita to'g'ri chiziq uchinchi to'g'ri chiziq bilan kesishganda , mos burchaklari teng bo'lsa, u holda bu ikkita to'g'ri chiziq paralleldir.

2)Teng yonli uchburchakning ixtiyoriy balandligi uning bissektrisasi ham bo'ladi.

3)Agar rombning burchaklaridan biri 90^0 ga teng bo'lsa, u holda bunday romb – kvadratdir.

4)Agar to'rtburchakning ikki qarama qarshi tomonlari teng bo'lsa, u holda bunday to'rtburchak – parallelogrammdir.

A) 2 ; 3 B) 2 ; 4 C) 1 ; 3 D) 1 ; 4

100. Agar $\sqrt{\frac{2}{\sqrt{7}+\sqrt{5}}-\frac{3}{\sqrt{7}-2}+a-1}$ ifodani qiymati 0 ga teng bo'lsa , a ni toping.

A) $\sqrt{5}-3$ B) $3+\sqrt{5}$ C) $3-\sqrt{5}$ D) $\sqrt{3+\sqrt{5}}$

101. Hisoblang. $(\log_2 7+\log_7 16+4)(\log_2 7-$ $-2\log_{28} 7)\cdot\log_7 2-\log_2 7$

A) 4 B) 3 C) 2 D) 1

102. Tenglama nechta butun ildizlarga ega.

$|x^2-2x-15|=2x-x^2+15$

A) 7 B) 8 C) 6 D) 9

103. $log_{\frac{1}{7}}^2(7-x^2)-8\log_{\frac{1}{7}}(7-x^2)-9=0$ tenglama nechta ildizga ega?

A) 1 B) 2 C) 3 D) 4

104. $\begin{cases}2x+y=7\\|x-y|=2\end{cases}$ tenglamalar sistemasining yechimlari sonini toping.

A) ∅ B) 4 C) 2 D) 1

105. $x^7\cdot|x^2+9x+8|<0$ tengsizlik [-8;1] kesmada nechta butun yechimga ega?

A) 5 B) 8 C) 6 D) 7

106. $|x^2+2x|+|x^2-4|>2|x^2+x-2|$ tengsizlikning barcha butun yechimlari yig'indisini toping.

A) -1 B) 2 C) 1 D) -3

107. $f(\varphi(x))=\frac{x+2}{x-3}$, $\varphi(x)=2x-1$ $bo'lsa, f(x)=?$

A) $f(x)=\frac{x+5}{2x-5}$ B) $f(x)=\frac{x-5}{x+5}$ C) $f(x)=\frac{x+5}{x-5}$

D) $f(x)=\frac{2x+5}{x-5}$

108. $\int(x+2)f^{-1}(x+1)dx=x^2+2x+C,\ C\in R$ tenglikni qanoatlantiruvchi f(x) funksiya quyidagilardan qaysi biri bo'la oladi? Bu yerda $f^{-1}(x)$ funksiya f(x) ga teskari funksiya.

A) $\frac{x}{2-x}$ B)$-\frac{x}{2+x}$ C) $\frac{x-2}{x+2}$ D)$-\frac{x}{2}+x$

109. ABCD trapetsiyaning AB yon tomoni 6 ga teng. Trapetsiyaning D va C uchlaridan bu tomon yotgan to'g'ri chiziqgacha masofalar 3 va 7 teng bo'lsa, trapetsiya yuzasini toping.

A) 25 B) 24 C) 30 D) 36

110. Agar to'g'ri to'rtburchakning perimetri 22 ga teng bo'lsa uning yuzasini eng katta qiymatini toping.

A) 30,25 B) 30 C) 32 D) 32,25

111. ABC uchburchakka tashqi chizilgan aylananing A nuqtani o'z ichiga olmagan BC yoyi o'rtasi M nuqta bo'lsin. AM kesma BC tomonini N nuqtada kesadi. Agar AB=13 , BC=10 va CA=12 bo'lsa,

BN – NC ni hisoblang.

A) 0,6 B) 0,2 C) 0,4 D) 0,4

112. Radiusi $4\sqrt{2}$ ga teng bo'lgan sharga konus ichki chizilgan. Konusning yasovchisi asos tekisligi bilan 60^0 li burchak tashkil etadi. Konusning yon sirtini toping.

A) 24π B) 48π C) 54π D) 32π

113. Birhad va ko'phadlar uchun quyidagi tsdiqlarning qaysi biri noto'g'ri?

A)ko'phadning darajasi deb , shu ko'phad tarkibidagi birhadlarning eng katta darajasiga aytiladi.

B)ko'phadning darajasi deb , shu ko'phad tarkibidagi birhadlarning darajalari yig'indisiga aytiladi.

C)agar ko'phad tarkibida faqat 2 ta harf ishtirok etsa , ikki noma'lumli ko'phad deyiladi.

D)birhadning darajasi deb , uning tarkibidagi barcha harflar darajalarining yig'indisiga aytiladi.

114. a+b-c=8 va ab-ac-bc=5 bo'lsa $a^2+b^2+c^2$ ning son qiymatini toping.

A) 62 B) 55 C) 44 D) 54

115. Tenglamani yeching.

$73\cdot10^{x+1}+0{,}07=2^{x+5}\cdot5^{x+2}$

A) 4 B) -1 C) -3 D) 3

116. a ning qanday eng katta butun qiymatida $3x^2$-18x-3>a tengsizlik x ning barcha qiymatlarida o'rinli bo'ladi.

A) -31 B) -30 C) -29 D) -32

117. $\log_{x+8}(64-x^2)-\frac{1}{16}log_{x+8}^2(x-8)^2\geq2$ tengsizlik nechta haqiqiy yechimga ega?

A) ∅ B) 1 C) 2 D) cheksiz ko'p

118. Quyidagi chiziqlar bilan chagaralangan shaklning yuzini toping. $y=x^2$, $y=0$, $x=3$

A) 3 B) 9 C) 8 D) 6

119. Rombning tomoni diagonallari bilan 4:5 kabi nisbatda burchak tashkil qilsa, uning burchaklarini toping.

A) 84^0 va 105^0 B) 80^0 va 100^0 C) 88^0 va 92^0

D) 108^0 va 72^0

120. Teng yonli uchburchakning asosi 8 sm ga , ton tomoni esa 5 sm ga teng. Bu uchburchakka tashqi chizilgan aylananing radiusini (sm) toping.

A) $\frac{25}{6}$ B) $\frac{25}{4}$ C) $\frac{25}{3}$ D) $\frac{25}{8}$

121. Aylana to'g'ri burchakli uchburchakning katta katetiga urinib , shu katet qarshisidagi burchak uchidan o'tadi, markazi esa gipotenuzada yotadi. Agar katetlarining uzunliklari 5 va 12 bo'lsa, aylananing radiusini toping.

A) $\frac{65}{18}$ B) $\frac{55}{18}$ C) $\frac{65}{36}$ D) $\frac{65}{9}$

122. Tennis turnirida 9 ta sportchi ishtirok etmoqda. Tennischilar necha xil usul bilan oltin, kumush va bronza medallarini yutish mumkin?

A) 504 B) 990 C) 720 D) 360

123. Koordinata to'g'ri chizig'ida a nuqta belgilangan. Quyidagi tasdiqlardan qaysi biri bu son uchun to'g'ri hisoblanadi?

A) 3-a<0 B) a+4>0 C) a+5<0 D) 2-a>0

124. 6 ga karrali bo'lmagan a va b juft sonlarini 6 ga bo'lganda har xil qoldiq qoladi. a+b sonini 6 ga bo'lganda qoldiq nechaga teng bo'ladi?

A) 0 B) 4 C) 3 D) 2

125. Agar $x = \frac{4}{3}$ bo'lsa,

$(x-2)^3 + 3\cdot(x-2)^2 + 3\cdot(x-2) + 1$ ifodaning qiymatini toping.

A) $-\frac{4}{27}$ B) $\frac{1}{27}$ C) $-\frac{1}{27}$ D) $\frac{8}{27}$

126. Tenglamani yeching. $3^{\log_2 50}\cdot x^{\log_2 9} = 3$

A) 3 B) 0,3 C) 1 D) 0,2

127. $\sqrt{25-x^2} \le \frac{12}{x}$ tengsizlikni yeching.

A) (0;5] B) [0;3]∪[4;5] C)(0;3]∪[4;5] D) ∅

127. Ushbu $(x^2-x)(x^2-x-2) \le 120$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi eng katta va eng kichik butun sonlar ayirmasini toping.

A) 6 B) 7 C) 5 D) 8

128. $y = \sqrt{\log_{\frac{1}{3}}(x^2-2x)+1}$ funksiyaning aniqlanish sohasini toping.

A) [-1;3] B) [-1;0)∪(2;3] C) (-∞;0)∪(2;∞)
D) (-∞;-1]∪[3;∞)

129. Boshlang'ich funksiyaning umumiy ko'rinishini toping. $f(x) = \frac{1}{2x+1}$

A) 2ln|2x+1|+C B) ln|2x+1|+C C) $\frac{1}{2}$ln|2x+1|+C D) $-\frac{1}{2}$ln|2x+1|+C

130. Agar qo'shni burchaklardan biri ikkinchisidan 40^0 ga katta bo'lsa, shu burchaklarni toping.

A) 135^0 ; 75^0 B) 110^0 ; 70^0
C) 135^0 ; 45^0 D) 90^0 va 60^0

131. To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi 9 ga va o'tkir burchagi 15^0 ga teng. Uchburchakning medianalar kesishish nuqtasidan gipotenuzagacha bo'lgan masofani toping.

A) $\frac{\sqrt{3}}{2}$ B) $\frac{\sqrt{2}}{4}$ C) $\frac{\sqrt{2}}{2}$ D) $2\sqrt{2}$

132. Asosi 18 m va yon tomoni 15 m bo'lgan teng yonli uchburchak berilgan. Ichki chizilgan doiraning markazidan uchburchak tekisligiga uzunligi 6 m bo'lgan perpendikulyar chiqarilgan. Bu perpendikulyarning oxiridan uchburchakning tomonlarigacha bo'lgan masofani toping.

A) 5,5 m B) 8 m C) 7,5 m D) 6 m

133. $\int \frac{2dx}{x\cdot ln2x}$ ni hisoblang.

A) $4lnln2x + C$ B) $2ln2x + C$
C) $1{,}5lnln2x + C$ D) $2lnln2x + C$

134. ABC to'g'ri burchakli uchburchakda E nuqta BC tomonni BE:EC=3:1 kabi nisbatda bo'ladi, D nuqta esa AB gipotenuzada yotadi. Agar BD=8, AC=12 va burchak BAC=60^0 bo'lsa, BDE uchburchak yuzini toping.

A) 36 B) 48 C)$18\sqrt{3}$ D) $24\sqrt{3}$

135. ABCD to'rtburchak aylanaga ichki chizilgan. Agar burchak ABC=105^0 , burchak CAD=35^0 bo'lsa , burchak ABD ni toping. A)75^0 B)60^0 C)70^0 D)80^0

136. Ifodani soddalashtiring.

$\sqrt[5]{b^5} - 2\sqrt[4]{b^4} + \sqrt[6]{b^6} - \sqrt[7]{b^7}$, bu yerda b ≥ 0

A) -2b B) 0 C) –b D) b

137. Tenglamani yeching: -3sinx=0

A) 2πm , m∈Z B) $\frac{\pi m}{-3}$, $m \in Z$ C) πm , m∈Z
D)$\frac{2\pi m}{-3}$, $m \in Z$

138. Ushbu sin2x+2sinx=cosx+1 tenglamaning [-π;π] oraliqqa tegishli ildizlari soni nechta?

A) 2 B) 4 C) 3 D) 1

139. $\sqrt{7-\sqrt{7+x}} = x$ tenglamaning natural yechimlari nechta?

A) 2 B) 0 C) 3 D) 1

140. $log^2_{0,2}(x-1) > 4$ tengsizlikni yeching.

A) (26;∞) B) (1;26) C) (0;1,04)∪(5;∞)
D) (1;1,04)∪(26;∞)

141. $f(x) = 19 - 7\cdot\sqrt[3]{x^2}$ funksiyaning ekstremumini toping.

A) 14 B) 19 C) -19 D) 26

142. y=f(x) funksiya qiymatlar to'plamini toping?



A) [-2;4] B) [-3;1] C) [-2;1] D) [-1;2]

toping. f(x)=sin²x

A) $\frac{x-sin2x}{2}+c$ B) $\frac{2x-sin2x}{2}+c$ C) $\frac{2x+sin2x}{4}+c$

D) $\frac{2x-sin2x}{4}+c$

144. ABC teng yonli uchburchakka tashqi chizilgan aylananing AD vatari uning BC asosini E nuqtada kesib o'tadi. Agar $=2\sqrt{3}$, $DE=\sqrt{3}$ bo'lsa, AB ni toping.

A) $3\sqrt{2}$ B) $3\sqrt{6}$ C) $3\sqrt{3}$ D)6

145. Agar $|a|\neq|b|\neq|c|$ va $\frac{a}{b+c}+\frac{b}{c+a}+\frac{c}{a+b}=1$ $\left(\frac{a^2}{b+c}+\frac{b^2}{c+a}+\frac{c^2}{a+b}\right):(a+b+c)$ning qiymatini toping

A) 0 B) 0,5 C) 1 D) 2

146. $4x^2-20x=0$ tenglama ildizlarini toping.

A) 0 ; 4 B) -4 ; 0 C) 0 ; 5 D) -5 ; 0

147. Ushbu $2x^3+3x^2-1=0$ tenglama katta ildizining kichik ildizga nisbatini toping.

A) $\frac{1}{2}$ B) $-\frac{1}{2}$ C) -2 D) 2

148. $\sqrt{7-\sqrt{7+x}}=x$ tenglamaning haqiqiy yechimlari ko'paytmasini toping.

A) 0 B) 2 C) 1 D) 4

149. $\frac{(x-1)(4-x)}{\sqrt{3+5x-2x^2}}>0$ tengsizlikning yechimlari to'plamini toping.

A) (1;3) B) (1;4) C) $(-\frac{1}{2};4)$ D) $(-\frac{1}{2};3)$

150. Ushbu $(x^2+3x+1)(x^2+3x+3)>35$ tengsizlikni qanoatlantirmaydigan butun sonlar nechta.

A) 4 ta B) 7 ta C) 6 ta D) 5 ta

151. y=3x-3 va y=-0,5x-a funksiyalarning grafiklari a ning qanday qiymatlarida koordinatalar tekisligining I choragida kesishadi.

A) $(-\frac{1}{2};\infty)$ B)$(-\infty;-\frac{1}{2})$ C) hech qanday qiymatida kesishmaydi. D) $(-\infty;\frac{1}{2})$

152. $f(x)=x+e^{-3x}$ funksiya grafigiga o'tkazilgan urinma y(x)=1−2x to'g'ri chiziqqa parallel. Urinish nuqta absissasini toping.

A) -1 B) 1 C) 2 D) 0

153. ABC , PQR va XYZ uchburchaklar teng. Agar AB=5 sm , QR=6 sm va ZX=7 sm ekanliklari ma'lum bo'lsa, uchburchaklarning qolgan tomonlarini toping.

A)BC= 6 sm, CA=7 sm, PQ=5 sm, RP=7 sm, XY=5 sm, YZ=6 sm

B) BC= 7 sm, CA=6 sm, PQ=5 sm, RP=7 sm, XY=6 sm, YZ=5 sm

C) BC= 6 sm, CA=7 sm, PQ=7 sm, RP=6 sm, XY=6 sm, YZ=5 sm

D) BC= 7 sm, CA=6 sm, PQ=7 sm, RP=5 sm, XY=5 sm, YZ=6 sm

154. Teng yonli uchburchakning asosi 8 sm ga , yon tomonining medianasi esa 10 sm teng. Yon tomonini (sm) toping.

A) $4\sqrt{17}$ B) $2\sqrt{17}$ C) $4\sqrt{7}$ D) $6\sqrt{17}$

155. Parallelogrammning diagonallaridan biri uning yon tomoniga perpendikulyar va unga teng. Parallelogrammning katta diagonali P tekislik bilan α burchak tashkil etadi. Agar $cos\alpha=\sqrt{0{,}936}$ bo'lsa, parallelogramm tekisligi va P tekislik orasidagi ikki yoqli burchakning kosinusini toping.

A) 0,6 B) 0,8 C) 0,2 D) 0,5

156. Agar $\vec{a}\cdot\vec{b}=42$ $bo'lsa, \vec{b}(2;3;-1)$ vektorga kollinear $\vec{a}(x;y;z)$ vektorning koordinatalari yig'indisini toping.

A) 9 B) 10 C) 14 D) 12

157. Tenglamaning ildizlari yig'indisini toping.

$$cos2x\cdot cos3x=-1\ ,x\in(0^0;720^0)$$

A) 540^0 B) 360^0 C) 720^0 D) 180^0

158. Tenglama haqiqiy ildizlarining yig'indisini toping.

$144x^4=(x^3+35x)^2$

A) 2 B) 0 C) -2 D) 4

159. Tenglmalar sistemasini yeching. $\begin{cases}2^x+2^y=12\\ x+y=5\end{cases}$

A) (2;3); (3;2) B) (2;3); (-3;-2)

C) (2;3); (2;2) D) (2;3)

160. $2x^3+mx^2-13x+n=0$ tenglamaning ildizlari $x_1=2$ va $x_2=3$ bo'lsa, uning uchinchi ildizini toping.

A) 2,5 B) -1,5 C) 1,5 D) -2,5

161. ln(x+1)≥2 tengsizlikning eng kichik butun qiymatini toping.

A) 7 B) 8 C) 4 D) 3

162. $f(x)=2x^6-7x^3+9$ funksiyaning eng kichik qiymatini toping.

A) $3\frac{1}{4}$ B) $4\frac{1}{2}$ C) $-3\frac{1}{4}$ D) $2\frac{7}{8}$

163. $f(x)=6x+\frac{6}{x}$ funksiyaning (0;∞) oraliqdagi eng kichik qiymatini toping.

A) 13 B) 14 C) 11 D) 12

164. $\int_{-5}^{3}|x-1|dx$ aniq integralni qiymatini toping.

A) -4,5 B) 20 C) 18 D) 16

165. Agar to'g'ri burchakli uchburchak katetlarining gipotenuzaga tushirilgan proyeksiyalari 9 va 16 ga teng bo'lsa, unga ichki chizilgan doira yuzini toping.

A) 75π sm² B) 25π sm² C) $12{,}5\pi$ sm² D) 50π sm²

166. Ikkita bir xil r radiusli aylanalar tashqi ravishda urinadi. Radiusi 8 ga teng bo'lgan uchunchi aylana bu aylanalarga tashqi ravishda A va B nuqtalarda urinadi. Agar AB=9 bo'lsa, r ni toping.

A) $\frac{72}{7}$ B) $\frac{48}{7}$ C) $\frac{72}{25}$ D) $\frac{36}{5}$

167. Oltiburchakli muntazam piramidaning apofemasi 2 ga teng. Asosidagi ikki yoqli burchak 60^0 ga teng. Piramidaning to'la sirtini toping.

A) $3\sqrt{3}$ B) $4\sqrt{3}$ C) $\frac{3\sqrt{3}}{2}$ D) $6\sqrt{3}$

168. $ABCDA_1B_1C_1D_1$ to'g'ri burchakli parallelepipedda $\overrightarrow{AD}=\vec{a}$, $\overrightarrow{AB}=\vec{b}$, $\overrightarrow{AA_1}=\vec{c}$ bo'lsa, $\overrightarrow{B_1D}$ vektorni $\vec{a}$, $\vec{b}$ va $\vec{c}$ vektorlar orqali ifodalang.

A) $\vec{a}-\vec{b}+\vec{c}$ B) $\vec{a}+\vec{b}+\vec{c}$ C) $\vec{a}-\vec{b}-\vec{c}$ D) $\vec{a}+\vec{b}-\vec{c}$

169. Quyidagi javoblardan qaysi biri bosh to'plam?

A) $A=\{x: x^2\le 0, x\in R\}$

B) $A=\{x: 3x+5, x\in R\}$

C) $A=\{x: x^2\le x, x\in R\}$

D) $A=\{x: |2x-3|=-4, x\in R\}$.

170. Hisoblang: $(2^2+6^2+10^2+14^2+18^2)-(1+5^2+9^2+13^2+17^2)$.

A)144 B)95 C)104 D)128

171. Quyida keltirilgan tasdiqlardan qaysilari noto'g'ri?

1) Ixtiyoriy ikkita nuqta orqali to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin. 2) Rombning barcha burchaklari tengdir. 3) Agar aylananing yoyi 80^0 ni tashkil etsa , u holda shu yoyga tiralgan ichki chizilgan burchak 40^0 ga teng. 4) Agar uchburchakning tomonlari 4 va 5 , ular orasidagi burchak 30^0 bo'lsa, u holda bu uchburchakning yuzi 5 ga teng.

A) 1 ; 4 B) 1 ; 3 C) 2 ; 4 D) 2 ; 3

172. Hisoblang:

$1\cdot 4+2\cdot 7+3\cdot 10+\cdots+8\cdot 25$.

A) 720 B) 640 C) 648 D) 900

173. Agar $x^2-5x+2=0$ bo'lsa , $x^2+\frac{4}{x^2}$ ning son qiymatini toping.

A) 15 B) 23 C) 21 D) 18

174. $a=7\frac{2}{17}$; $b=6\frac{15}{17}$ bo'lsa , $\frac{a^2-b^2}{ab}:\left(\frac{1}{b}-\frac{1}{a}\right)$ ifodaning qiymatini toping.

A) 14 B) 10 C) 12 D) 16

175. Juft sonning o'zidan keyin keluvchi juft sonning uchlangani bilan yig'indisi 70 dan kichik . Ushbu shartni qanoatlantiruvchi juft sonlardan eng kattasini toping.

A) 12 B) 16 C) 14 D) 8

176. Agar $2^x=91$ bo'lsa |x-8|+|x-6| ifodani soddalashtiring.

A) -2 B) 2 C) 2x-14 D) 14-2x

177. Tenglamani yeching.

$\sqrt{2x^2-21x+4}=2-11x$

A) -2 B) -3 C) 1 D) 0

178. $\frac{3x^2-16x+21}{\log_{0,3}(x^2+6)}<0$ tengsizlikni yeching.

A) $\left(\frac{7}{3};3\right)$ B) $\left(-\infty;\frac{5}{3}\right)\cup(3;\infty)$ C) (3;∞) D) $\left(-\infty;\frac{7}{3}\right)\cup(3;\infty)$

179. $x^2-6ax-(2-3a)(2+3a)<0$ tengsizlikni yeching.

A) (3a-2;3a+2) B) (-∞;3a-2)∪(3a+2;∞)

C) (-∞;2-3a)∪(2+3a;∞) D) (2-3a;2+3a)

180. Grafik ko'rinishda berilgan funksiya qiymatlar to'plamini toping.



A) [-2;2] B) [-2;3] C) (-2;3) D) (-4;4]

181. $\int_{-1}^{0}(bx+a)dx=10$ tenglik o'rinli bo'lsa, b−2a ni qiymatini toping.

A) -30 B) -20 C) -40 D) -10

182. Teng yonli ABC uchburchakda AC=2; BA=BC=4 ; AN va CM bissektrisalar. MN kesma uzunligi toping.

A) $\frac{5}{3}$ B) $\frac{5}{4}$ C) $\frac{4}{3}$ D) $\frac{3}{2}$

183. Muntazam uchburchakka tomoni 4 ga teng bo'lgan kvadrat ichki chizilgan. Uchburchakning yuzini toping.

A) $\frac{2(7\sqrt{3}+12)}{3}$ B) $\frac{8(7\sqrt{3}+12)}{3}$ C) $\frac{4(7\sqrt{3}+12)}{3}$ D) $\frac{(7\sqrt{3}+12)}{6}$

184. O'lchamlari 80x20x5 sm bo'lgan to'g'ri burchakli parallelepiped shaklidagi mis g'o'lasidan qalinligi 1 mm bo'lgan tunuka taxtasi tayyorlandi. Bu tunuka taxtaning yuzini toping.

A) 0,8 m^2 B) 80 m^2 C) 8 m^2 D) 80 sm^2

185. Do'konda 7 xil pidjak , 5 xil shim va 4 xil galstuk sotilmoqda. Pidjak , shim va galstukdan iborat komplektni nechta usul bilan sotib olsa bo'ladi.

A) 155 B) 148 C) 146 D) 140

186. $Agar$ $x\sqrt{x}-9\sqrt{x}=8$ bo'lsa , $x-\sqrt{x}$ ning qiymatini toping.

A) 3 B) 7 C) 6 D) 8

187. Agar $x=\sqrt{42-\sqrt{42-\sqrt{42-\cdots}}}$,

$y=\sqrt{x+\sqrt{x+\sqrt{x+\cdots}}}$

$z=\sqrt{y\sqrt{y\sqrt{y\ldots}}}$ bo'lsa , $x+y+z$ ning qiymatini toping.

A) 11 B) 14 C) 10 D) 12

188. $a\cdot b\cdot c=4$ bo'lsa,

$\left(\frac{1}{a}-b\cdot c\right)\cdot\left(\frac{2}{b}-a\cdot c\right)\cdot\left(\frac{3}{c}-a\cdot b\right)$. Ko'paytmaning qiymatini .

A) $\frac{2}{3}$ B) $-\frac{3}{2}$ C) 1 D) $-\frac{5}{3}$

189. Nuqtalar o'rniga to'g'ri javobni tanlang.

To'g'ri burchakli uchburchak α o'tkir burchagi... deb shu burchakka yopishgan katetning gipotenuzaga nisbatiga aytiladi.

A) sinusi B) tangensi C) kosinusi D) kotangensi

190. Agar a<0 , b<0, c>0 bo'lsa, $\sqrt{b^2}+|b-c|-|c-a|+b$ ifodani soddalashtiring.

A)a-2b B)a-2b+c C)-a D)a-b

191. a manfiy bo'lsa , ifodani soddalashtiring.

$\sqrt[3]{54a^{2\frac{1}{3}}}\cdot\sqrt[3]{24a^{\frac{2}{3}}}$

A) $6a\sqrt[3]{6}$ B) $6a^{\frac{2}{3}}$ C) 12a D)$12a^{\frac{2}{3}}$

192. Tenglama ildizlarining to'rtinchi darajali yig'indisini toping. $x^2-2x-2=0$

A) 56 B) 48 C) 64 D) 54

193. Ildizlari $\frac{1}{10-\sqrt{72}}$ va $\frac{1}{10+6\sqrt{2}}$ ga teng bo'lgan ratsional koeffitsentli kvadrat tenglama tuzing.

A) $28x^2-20x+1=0$ B) $7x^2-20x+1=0$

C) $28x^2-20x+\frac{1}{4}=0$ D) $7x^2-5x+1=0$

194. $(x^2-6x)^2-5(x-3)^2-59=0$ tenglamaning butun sonlardan iborat yechimlari nechta.

A) ∅ B) 2 ta C) 4 ta D) 1 ta

195. Tengsizlikni yeching. ||x|-2|≤1

A) [1;3] B) [3;∞) C) [-3;-1]∪[1;3]

D) (-∞;3]∪[-1;1]

196. Qaysi son $y=3^{x-1}+5$ funksiya qiymati bo'la oladi.

A) 2 B) 9 C) 3 D) 5

197. Aniq integralni qiymatini toping.

$\int_{-2}^{1}|x^2-x|dx$

A) $5\frac{1}{6}$ B) $4\frac{1}{6}$ C) $4\frac{5}{6}$ D) $5\frac{2}{3}$

198. Teng yonli uchburchakning asosiga tushirilgan balandligi 3 ga, yon tomoniga tushirilgan balandligi 4 ga teng. Uchburchak yuzini toping.

A) $2\sqrt{5}$ B) $3{,}2\sqrt{5}$ C) $3\sqrt{5}$ D) $3{,}6\sqrt{5}$

199. Bir nuqtadan aylanaga ikkita urinma o'tkazilgan. Har bir urinmaning uzunligi 12 sm, urinish nuqtalari orasidagi masofa 14,4 sm. Aylana uzunligini toping.

A) 16π sm B) 24π sm C) 18π sm D) 20π sm

200. Piramida asosi tomonlari 12 , 20 va 16 ga teng bo'lgan uchburchakdan iborat. Piramidaning barcha ikkiyoqli burchaklari 30^0 ga teng bo'lsa. Uning hajmini (sm^3) toping.

A) $\frac{128\sqrt{3}}{3}$ B) $\frac{256\sqrt{3}}{3}$ C) 320 D) 960

201. 1 , 2 , 3 , 4 , 5 , 6 , 7 raqamlardan foydalangan holda , nechta turli ikki xonali har xil raqamlardan iborat sonlar hosil qilish mumkin?

A) 24 B) 84 C) 210 D) 42

202. To'g'ri berilgan integrallash formulalarni tanlang.

1) $\int \sin(b-kx)\,dx=-\frac{1}{k}\cdot\cos(b-kx)+c$

2) $\int \cos(b-kx)\,dx=-\frac{1}{k}\cdot\sin(b-kx)+c$

3) $\int tg^2x dx=tgx-x+c$

A) 1 ; 3 B) 2 ; 3 C) 1 ; 2 ; 3 D) 1 ; 2

203. $\sqrt{3x+2y-13}+\sqrt{4x-y-10}=0$ bo'lsa , x va y sonlarining ko'paytmasini toping.

A) 8 B) -2 C) -4 D) 6

204. $y=x^2$ parabola grafigini o'ngga ikki birlik, yuqoriga uch birlik siljitish(parallel ko'chirish) natijada hosil bo'lgan parabola tenglamasini yozing.

A) $y=x^2-4x+7$ B) $y=x^2-4x+3$

C) $y=x^2+4x+7$ D) $y=2x^2+3$

205. Agar $0<\alpha,\beta<\frac{\pi}{2}$, $tg\alpha=\frac{\sqrt{3-\sqrt{3}}\cdot\sqrt{3}}{4-\sqrt{3-\sqrt{3}}}$ va

$tg\beta=\frac{\sqrt{3-\sqrt{3}}-1}{\sqrt{3}}$ bo'lsa , $\alpha-\beta$ ni toping.

A) $\frac{\pi}{4}$ B) $\frac{\pi}{6}$ C) $\frac{\pi}{3}$ D) $\frac{\pi}{12}$

206. Ifodani qiymatini $a=18\sqrt{2}$ bo'lganda hisobla.

$$\left(\left(\sqrt{a^3a^{-3}}-\sqrt{27a^{-3}}\right):\left(\frac{a^2+9}{3a}+1\right)\right)\frac{(a-3)^{-1}}{(6a^3)^{-\frac{1}{2}}}-6$$

A) 30 B) -42 C) 42 D) 36

207. Hisoblang.

$$2^{\frac{1}{2\log_5 2}}\cdot 5^{log_5^2 2}-\sqrt{5}\cdot 2^{\log_5 2}-\left(\frac{1}{3}\right)^{\log_3 25}$$

A) 0,04 B) -0,4 C) 0,4 D) -0,04

208. Tenglamani yeching. $2sin5x-\sqrt{2}=0$

A) $(-1)^n\frac{\pi}{20}+\pi n, n\in Z$ B) $\pm\frac{\pi}{20}+2\pi n, n\in Z$

C) $(-1)^n\frac{\pi}{20}+\frac{\pi n}{5}, n\in Z$ D) $\pm\frac{\pi}{20}+\frac{2\pi n}{5}, n\in Z$

209. $(x^2-5x+4)\cdot\ln(5-x^2)=0$ tenglamaning ildizlari ko'paytmasini toping.

A) -2 B) 4 C) -4 D) 10

210. $\frac{7x+1}{x^2+4x+3}>1$ tengsizlikni qanoatlantiruvchi butun sonlar soni x_o bo'lsa , x_o+2 ni toping.

A) 2 B) 3 C) 5 D) 4

211. $y=x^2-|2x-4|$ funksiya grafigiga x=3 va x=-3 nuqtalarda o'tkazilgan urunmalarning kesishish nuqtasi ordinatasini toping.

A) -6 B) -5 C) -12 D) -9

212. $\int\frac{dx}{x\cdot ln2x}$ ni hisoblang.

A) 2lnln2x+c B) lnln2x+c

C) $\frac{1}{2}$lnln2x+c D) ln2x+c

213. $|x^2+2x|+|x^2-4|>2|x^2+x-2|$ tengsizlikning barcha butun yechimlari yig'indisini toping.

A) 2 B) -3 C) -1 D) 1

214. y=50x+79 to'g'ri chiziqqa parallel bo'lgan , y=kx-4,7 to'g'ri chiziqqa tegishli nuqtani toping.

A) (1;3) B) (0,1;0,3) C) (0,3;0,1) D) (0,125;2,2)

215. Perimetri 12 sm ga teng bo'lgan uchburchak o'rtalari kesmalar orqali tutashtirildi. Hosil bo'lgan uchburchak perimetrini toping.

A) 6 sm B) 7 sm C) 8 sm D) 9 sm

216. Birinchi quvurdan ikkinchi quvurga qaraganda ikki barobar ko'p suv oqadi. Ikkalasi birgalikda bo'sh hovuzni 12 soatda to'ldiradi. Birinchi quvur hovuzning uchdan bir qismini necha soatda to'ldiradi.

A) 12 B) 4 C) 6 D) 9

217. 1, 8, 27, 64, 125, … ketma ketlikning 10- hadini toping.

A) 1331 B) 512 C) 729 D) 1000

218. Hisoblang. 1·4+2·7+3·10+…+10·31

A) 1210 B) 1200 C) 1440 D) 900

219. Hisoblang $tg20^0+4\sin20^0$

A) $\frac{\sqrt{3}}{3}$ B) 1 C) $\sqrt{3}$ D) 2

220. Parallellogrammning bir tomoni ikkinchi tomonidan ikki marta katta , o'tkir burchagi 60^0 ga teng. Parallellogrammning katta tomonlaridan biri P tekislikda yotadi va katta diagonali ushbu tekislik bilan α burchak tashkil etadi. Agar $cos\alpha = \sqrt{\frac{103}{112}}$ bo'lsa, parallelogram tekisligi va P tekislik orasidagi ikki yoqli burchakning kosinusini toping.

A) 0,5 B) 0,1 C) 0,75 D) 0,25

221. Ifodani soddalashtiring: $\frac{1}{(n+4)!} - \frac{1}{(n+5)!}$

A) $\frac{n+4}{(n+5)!}$ B) $\frac{1}{(n+4)!(n+5)!}$ C) 0 D) $\frac{(n+4)!}{(n+5)!}$

222. Quyidagi keltirilgan tasdiqlardan qaysilari noto'g'ri?

1)Trapetsiyaning diagonallari kesishadi va kesishish nuqtasida teng ikkiga bo'linadi. 2)Agar tekislikda ikkita to'g'ri chiziq uchinchi to'g'ri chiziq bilan kesishganda hosil bo'lgan mos burchaklari 65^0 ga teng bo'lsa, u holda bu ikki to'g'ri chiziq paralleldir. 3)Teng yonli uchburchakning ixtiyoriy balandligi uning bissektrisasi ham bo'ladi. 4)Ixtiyoriy uchta nuqta orqali ko'pi bilan bitta to'g'ri chiziq o'tkazish mumkin.

A)1 , 3 B) 1 , 4 C) 2 , 3 D) 2 , 4

223. Agar x<-2 bo'lsa , $\sqrt{x^2+7x+2+\sqrt{4-12x+9x^2}}$ ifodani hisoblang.

A) 2-x B) –x-2 C) x+2 D) -2x

224. Tenglamani yeching. $6sin^2x + 13sinx + 5 = 0$

A) $x = -\frac{\pi}{6} + \pi n\,; x = \frac{\pi}{6} + 2\pi n\,, n \in Z$

B) $x = -\frac{\pi}{3} + 2\pi n\,; x = \frac{7\pi}{5} + 2\pi n\,, n \in Z$

C) $x = -\frac{\pi}{6} + 2\pi n\,; x = \frac{7\pi}{6} + 2\pi n\,, n \in Z$

D) $x = -\frac{\pi}{6} + \frac{\pi n}{2}\,; x = \frac{7\pi}{6} + \pi n\,, n \in Z$

225. $(5x-1)(2x-5)^2=(4x^2-25)(x-0,2)$ tenglama ildizlari yig'indisini toping.

A) $6\frac{1}{4}$ B) $6\frac{1}{2}$ C) $6\frac{9}{20}$ D) $2\frac{7}{10}$

226. $\frac{2}{x^2-4} + \frac{x-4}{x^2+2x} = \frac{1}{x^2-2x}$ tenglamaning barcha ildizlari yig'indisini (agar u bitta bo'sa , shu ildizni o'zini) toping.

A) -5 B) 4 C) 5 D) 3

227. $\frac{|x-2|}{x^2+3x-10} \geq 2$ tengsizlikni yeching.

A) [-5,5;2) B) [0;∞) C) [-5,5;-5)∪(-5;-4,5]

D) [-5,5;-5)

228. Quyida keltirilgan tasdiqlardan qaysilari noto'g'ri?

1)Agar parallelogrammning diagonallari teng bo'lsa, u holda parallelogram to'g'ri to'rtburchakdir.

2)Aylanaga tashqi chizilgan ko'pburchakning yuzi, uning perimetri va aylana radiusi ko'paytmasiga teng.

3)Agar aylananing yoyi 80^0 ni tashkil etsa , u holda shu yoyga tiralgan ichki chizilgan burchak 40^0 ga teng.

4)Trapetsiyaning yuzi balandligining yarmi va asoslari yig'indisi ko'paytmasiga teng.

A) 2 ; 4 B) 2 ; 3 C) 1 ; 4 D) 1 ; 3

229. Juft funksiyani toping.



230. Moddiy nuqta yurgan yo'li quyidagi qonuniyat bo'yicha o'zgarmoqda. $S(t) = \frac{t^4}{4} - \frac{t^3}{3} + t^2 + 1$ (m). Harakat boshlangandan so'ng 4-sekund oxirida uning oniy tezligi necha m/s bo'ladi.

A) 52 B) 54 C) 56 D) 48

231. Ikkita katetdan teng uzoqlikda joylashgan hamda gipotenuzada yotgan nuqta gipotenuzani 20 va 30 sm uzunlikdagi kesmalarga ajratadi. Uchburchakning kichik ketetini toping.

A) $\frac{100}{\sqrt{39}}\ sm$ B) $\frac{100}{\sqrt{13}}\ sm$ C) $\frac{200}{\sqrt{13}}\ sm$ D) $\frac{100}{\sqrt{26}}\ sm$

232. Barcha qirralari $\sqrt{1,5}$ ga teng bo'lgan uchburchakli piramidaga ichki chizilgan shar radiusini toping.

A) 0,25 B) 0,5 C) 1 D) 2,5

233. $\frac{(3x+7)^2-(3x-7)^2}{x}$ kasrni qisqartiring.

A) 44 B) 14 C) 40 D) 84

234. $\left(a^{\frac{1}{3}} + b + \frac{4b^2-a^{\frac{2}{3}}}{\sqrt[3]{a}-b}\right) : \left(\frac{a^{\frac{1}{3}}}{\sqrt[3]{a^2-b^2}} - \frac{2}{\sqrt[3]{a}+b} + \frac{1}{\sqrt[3]{a}-b}\right) \cdot \frac{2}{a^{\frac{1}{3}}+b}$

A) 2b B) $b \cdot \left(b - a^{\frac{1}{3}}\right)$ C) $2b \cdot (a^{\frac{1}{3}} + b)$ D) b

235. Tenglamani yeching. $9 - 8 \cdot \sqrt[6]{x} - \sqrt[3]{x} = 0$

A) 1 B) 3 C) -1 D) 0

236. Tenglamaning ildizlar ko'paytmasini toping.

$5^{-2\log_{0,04}(3-4x^2)} + 1{,}5\log_{\frac{1}{8}} 4^x = 0$

A) 1/3 B) 1/6 C) 1/2 D) ¾

237. Tenglamalar sistemasini yeching.

$\begin{cases} x + y + xy = 0 \\ x^3 + y^3 + x^3y^3 = 12 \end{cases}$

A) $(1;\sqrt{3});(\sqrt{3};1)$ B) $(1-\sqrt{3};1+\sqrt{3})$

C) $(1+\sqrt{3};1+\sqrt{3})\,;(1-\sqrt{3};1-\sqrt{3})$

D) $(1+\sqrt{3};1-\sqrt{3});(1-\sqrt{3};1+\sqrt{3})$

238. Integralni hisoblang. $3 \cdot \int_{-1}^{3} \frac{1}{\sqrt{2x+3}}\,dx$

A) 4 B) 3 C) 9 D) 6

239. To'g'ri burchakli uchburchakning yuzi 18 ga va o'tkir burchagi 15^0 ga teng. Uchburchakning medianalar kesishish nuqtasidan gipotenuzagacha bo'lgan masofani toping.

A) 2 B) 0,8 C) 1 D) 1,5

240. Barcha qirralari teng bo'lgan uchburchakli piramidaga ichki chizilgan shar radiusi $\frac{2\sqrt{2}}{\sqrt{3}}$ ga teng. Piramida qirrasi uzunligini toping.

A) 16 B) 4 C) 8 D) 2

